

Qishloq Qurilish Bank

Bank ustavi

[Bank ustavi - 2014 yil 11 iyul 77 \(1.6 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2015 yil 15 iyun 77-1 \(1.6 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2015 yil 13 avgust 77-1 \(1.7 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2016 yil 6 may 77-3 \(956.4 kb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2016 yil 3 oktyabr 77-4 \(4.0 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2017 yil 10 mart 77-5 \(4.2 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2017 yil 16 avgust 77-6 \(9.4 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2017 yil 30 noyabr 77-7 \(4.1 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2017 yil 18 dekabr 77-8 \(4.7 mb\)](#)

[Bank ustaviga kiritilgan o`zgartirishlar - 2018 yil 14 iyun 77-9 \(2.78 mb\)](#)

Aksiyadorlik tijorat banki

“Qishloq qurilish bank”

USTAVI

1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Aksiyadorlik tijorat banki “Qishloq qurilish bank” (keyingi o`rinlarda “Bank”, deb ataladi) O`zbekiston

Respublikasi “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuni va O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to’g’risida”gi 2009 yil 30 martdagi PQ-1083-sonli Qaroriga muvofiq ochiq aksiyadorlik tijorat “G’allabank” negizida tashkil etilgan.

1.2. Bankning firma nomi:

davlat tili kirill alifbosida: to’liq – “Aksiyadorlik tijorat banki “Qishloq qurilish bank”, qisqartirilgan holda – ATB “Qishloq qurilish bank”;

davlat tili lotin alifbosida: to’liq – “Aksiyadorlik tijorat banki “Qishloq qurilish bank”, qisqartirilgan holda – ATV “Qishloq qurilish bank”;

rus tilida: to’liq – “Aksionerniy kommercheskiy bank “Kishlok kurilish bank”, qisqartirilgan holda – AKB “Kishlok kurilish bank”;

ingliz tilida: to’liq – “Joint-stock commercial bank “Qishloq qurilish bank”, qisqartirilgan holda – JSCB “Qishloq qurilish bank”, deb yuritiladi.

Bank o’z firma nomidan mutloq foydalanish huquqiga ega.

1.3. Bank mulkiy, moliyaviy va boshqa majburiyatlar, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag’larini saqlash hamda o’z vaqtida qaytarishni kafolatlovchi talablar bo’yicha Ochiq aksiyadorlik tijorat banki “G’allabank”ning huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.4. Bank aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi. Yuridik va jismoniy shaxslar bankning aksiyadorlari bo’lishi mumkin.

1.5. Bank o’zining firma nomi davlat tilida to’liq yozilgan hamda joylashgan eri ko’rsatilgan yumaloq muhrga ega bo’ladi. Muhrda bir vaqtning o’zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko’rsatilishi mumkin. Bank o’zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o’z timsoliga, shuningdek fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarining va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo’lishga haqli.

1.6. Bank o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga, shuningdek mazkur Ustavga amal qiladi.

1.7. Bank davlatning majburiyatlari bo’yicha, davlat esa – bankning majburiyatlari bo’yicha javobgar emas, agar ular o’z zimmalariga bunday majburiyatlarni olgan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

1.8. Bank majburiyatlari bo’yicha o’zining barcha mol-mulki bilan javob beradi. Bank qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulkiy va nomulkiy huquqlarni amalga oshiradi, majburiyatlar oladi, sudda da’vogar hamda javobgar bo’ladi.

1.9. Bank o’z faoliyatini O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan lisenziya asosida amalga oshiradi. Bank faoliyati muddati cheklanmagan.

1.10. Bankning manzili: O’zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko’chasi, 18 A uy.

Bankning elektron pochta manzili: info@qqb.uz

Bankning rasmiy veb-sayti: <http://www.qqb.uz>

1.11. Bank yuridik shaxs hisoblanadi hamda o’zining filiallari va alohida bo’linmalari bilan yagona tizimni tashkil etadi. Bank o’zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo’ladi.

1.12. Bank respublika hududida jami 42 (qirq ikki) ta filiallarga ega (1-ilova).

2-BOB. BANKNING BOSH MAQSADI VA ASOSIY VAZIFALARI

2.1. Bankning bosh maqsadi qishloqda uy-joy, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar qurilishi bilan bog’liq loyihalarni kreditlash bo’yicha kompleks xizmatlar, shuningdek qishloq tadbirkorlariga keng ko’lamli bank

va konsalting xizmatlari ko'rsatish hisoblanadi.

2.2. Bankning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

qishloq aholisining uy-joy sharoitini tubdan yaxshilash maqsadida tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurishga qishloq aholisiga imtiyozli ipoteka kreditlari ajratish;

qishloq joylarda turar-joy va ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish, ta'mirlashni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan pudratchi tashkilotlarga kredit berish va lizing xizmatlari ko'rsatish;

yangi, zamonaviy qurilish materiallari va konstruksiyalarni ishlab chiqaruvchi, yig'ma, kompozision va mayda blokli konstruksiyalardan foydalangan holda qishloqda namunaviy loyihalar bo'yicha ob'ektlar qurilishining industrial va yig'ma texnologiyalarini joriy etuvchi korxonalariga kredit berish;

qishloq hududlaridagi ijtimoiy infratuzilmalar sifatini yaxshilash, yo'llar, energota'minot va suv ta'minoti tizimi, qishloq vrachlik punkti, maktablar, bolalar sporti ob'ektlarini rekonstruksiya qilishni, transport kommunikasiyalar va servis sohasini rivojlantirishni nazarda tutadigan loyihalarni kreditlash;

qurilish quvvatlarini modernizasiya qilishga, qurilish bo'yicha zamonaviy xorijiy texnologiyalarni, shuningdek maxsus qurilish-montaj asbob-uskunalarni jalb qilishga yo'naltirilgan faol investision siyosatni amalga oshirish;

qarz oluvchilarning moliyaviy holatini tahlil qilish asosida kreditlar qaytishini ta'minlash;

xalqaro moliya institutlari va etakchi xorijiy banklarning bank tomonidan jalb qilingan resurslari hisobidan kreditlash va moliyaviy lizing berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni kengaytirish;

qishloq tadbirkorlik sub'ektlariga va aholisiga xizmatlar ko'rsatish uchun qishloq joylarda Bankning filiallar tizimini va moliyaviy infratuzilmasini rivojlantirish;

investisiya loyihalarini tanlab olish, ekspertiza qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha Bank xodimlarini tizimli asosda qayta tayyorlash hamda malakasi oshirilishini tashkil etish, yuqori malakali, tashabbuskor, vazifalarini samarali echish qobiliyatiga ega rahbarlar va mutaxassislar bilan mustahkamlash;

korxonalar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarga universal tijorat bank sifatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa kompleks bank xizmatlari ko'rsatish.

3-BOB. BANKNING OPERASİYALARI

3.1. Bank amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi operasialarni amalga oshiradi:

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslardan depozit va omonatlarni jalb etish;

kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish;

mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;

chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;

cheklar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkassasiya qilish;

uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;

uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operasialarni bajarish;

Bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;

moliyaviy lizing va faktoring xizmatlarini ko'rsatish;

investision loyihalarni ekspertiza qilish va moliyalashtirish;

jismoniy shaxslarga iste'mol, ipoteka va boshqa turdagi kreditlarni berish;

bank mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan yoki shartnoma asosida kapital qurilishda bajarilgan ishlar hajmini bo'yicha nazorat o'lchovlarini amalga oshirish;

- xalqaro bank amaliyotiga muvofiq lisenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operasialarni amalga oshirish.

3.2. Bank o'z operatsiyalarini amalga oshirish va pul mablag'larini saqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida, rezident va norezident banklarda qonunchilikda belgilangan tartibda vakillik hisobvaraqlarini ochadi.

4-BOB. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida O'zbekiston Respublikasi va tegishli xorijiy davlatning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tijorat va notijorat tashkilotlarida mustaqil ravishda yoki yuridik va jismoniy shaxslar bilan birgalikda ishtirok etish;

belgilangan tartibda filiallar, vakolatxonalar, sho'ba banklar va korxonalar tashkil etish;

o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, o'z manfaatlarini himoya qilish va qo'shma dasturlarni amalga oshirish uchun ittifoqlarda, uyushmalarda va boshqa birlashmalarda qatnashish;

Bankning filiallari va boshqa bo'linmalari tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish shartlari va tartiblarini tasdiqlash, depozitlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini, jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun vositachilik haqi miqdorini belgilash;

shartnoma asosida depozitlar va kreditlar shaklida boshqa banklarning mablag'larini jalb etish va mablag'larni boshqa banklarda joylashtirish;

tashkil etiladigan hisob-kitob markazlari va korrespondentlik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish;

barcha soliqlar va majburiy to'lovlar to'langandan keyin bank tasarrufida qoladigan sof foyda hisobidan zahiralalar va fondlar tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish;

moliya va xo'jalik organlarida korxonalar va tashkilotlar manfaatlarini, ularning ishonchnomalari asosida ifodalash;

o'z mablag'lari bilan shu jumladan, ulush qo'shish asosida korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini, xoldinglarni tashkil etish va ularning xo'jalik faoliyatida qatnashish;

lisenziyada va ushbu Ustavda nazarda tutilgan, o'z moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa xatti-harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish.

4.2. Bank quyidagilarga majburdir:

mablag'larni Markaziy bankda zahiraga qo'yish va belgilangan iqtisodiy normativlarga rioya qilish bo'yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarni bajarish;

kredit va lizing operatsiyalari bo'yicha ehtimol tutilgan zararlarni qoplash uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda va miqdorlarda zahiralalar tashkil etish;

Markaziy bank topshirig'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining kassa ijrosi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish;

garovning (shu jumladan, mol-mulk shaklidagi garovning), beriladigan kafolatlar, kafilliklar va majburiyatlarning etarililigini hisobga oladigan beriladigan kreditlar ta'minlanishining ichki normativ tartibini belgilash;

o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor etish;

Bankda ichki audit xizmati mavjud bo'lishini ta'minlash;

- qonun hujjatlariga muvofiq, bank sirini yoki boshqa sirni tashkil etadigan ma'lumotlarning oshkor etilmasligini ta'minlash.

4.3. Bankning filial va vakolatxonalari yuridik shaxs hisoblanmaydi, o'z faoliyatini Bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomlar asosida amalga oshiradilar. Filial va vakolatxonalar rahbarlarining vakolatlari filiallar Nizomlarida va Bank Boshqaruvi raisi tomonidan beriladigan ishonchnomada belgilab qo'yiladi.

5-BOB. BANK MABLAG'LARI, MOL-MULKI VA KREDIT RESURLARI.

USTAV KAPITALINI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

5.1. Bankning o'z mablag'lari:
ustav kapitalidan;
zahira fondidan;
taqsimlanmagan foydadan;
qo'shimcha kapitaldan;

- bank Kengashi qaroriga ko'ra shakllantiriladigan boshqa fondlardan hosil bo'ladi.

5.2. Bankning shakllangan ustav kapitali miqdori 294.691.953.605,0 (Ikki yuz to'qson to'rt milliard olti yuz to'qson bir million to'qqiz yuz ellik uch ming olti yuz besh) so'mni tashkil etib, quyidagilarga bo'lingan:

- 2.553.538.727 (Ikki milliard besh yuz ellik uch million besh yuz o'ttiz sakkiz ming etti yuz yigirma etti) dona miqdordagi nominal qiymati 115,0 (Bir yuz o'n besh) so'mni tashkil qiladigan umumiy qiymati 293.656.953.605,0 (Ikki yuz to'qson uch milliard olti yuz ellik olti million to'qqiz yuz ellik uch ming olti yuz besh) so'm bo'lgan egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalar;

- 9.000.000 (To'qqiz million) dona miqdordagi nominal qiymati 115,0 (Bir yuz o'n besh) so'mni tashkil qiladigan umumiy qiymati 1.035.000.000 (Bir milliard o'ttiz besh million) so'm bo'lgan egasining nomi yozilgan hujjatsiz shakldagi imtiyozli aksiyalar.

Bank aksiyalarining nominal qiymati 115,0 (Bir yuz o'n besh) so'mni tashkil qiladi.

Bank ustav kapitali bank aksiyadorlari sotib olgan bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

5.3. Bank ustav kapitalini oshirish maqsadida, avval e'lon qilinadigan aksiyalar hajmi, egasining nomi yozilgan 1.000.000.000 (Bir milliard) dona miqdorida, nominal qiymati 115,0 (Bir yuz o'n besh) so'm bo'lgan hujjatsiz shakldagi oddiy aksiyalardan tashkil topadi. Ushbu e'lon qilingan aksiyalar yopiq tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joylashtiriladi.

5.4. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

Bankning ustav kapitalini aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yo'li bilan ko'paytirish faqat bankning o'z kapitali hisobidan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasida, bank tomonidan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish orqali ustav kapitalini ko'paytirish jalb qilingan investisiyalar, bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

Bank ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda Bank ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

Bank tomonidan aksiyalarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

5.5. Aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan Bank ustav kapitalini ko'paytirish va shu bilan bog'liq o'zgartishlarni bank ustaviga kiritish to'g'risidagi qaror bank Kengashi tomonidan qabul qilinadi.

5.6. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda bank tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Bankning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga, agar

bunday imkoniyat bank ustavida nazarda tutilgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori ustavga kiritilgan tegishli o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish kuni qonun hujjatlarida belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketadigan bo'lsa, bank ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

Ustav kapitalni kamaytirish va bank ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Ustav kapitalni kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

5.7. Bank zaxira fondi bank ustav kapitalining 15 foizidan kam bo'lmagan miqdorga etguniga qadar har yili sof foydadan 5 foizdan kam bo'lmagan miqdordagi ajratmalar o'tkazish orqali shakllantiriladi. Bank qonun hujjatlariga muvofiq boshqa fondlarni tashkil etishga haqlidir.

Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, bankning zaxira fondi bankning zararlari o'rnini qoplash, bankning korporativ obligasiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va bankning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

5.8. Bank fondlarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomlar bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

5.9. Bankning mol-mulki o'ziga tegishli bo'lgan binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari va boshqa boyliklardan iborat bo'ladi.

5.10. Bankning kredit resurslari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

Bankning o'z mablag'lari;

mijozlarning depozit hisobvaraqlardagi mablag'lari;

boshqa banklar kreditlari;

obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarish natijasida jalb qilingan mablag'lar;

xorijiy kredit liniyalari mablag'lari;

- jalb qilingan boshqa mablag'lar.

6-BOB. BANKNING AKSIYALARI, BANK AKSIYADORLARINING HUQUQLARI

6.1. Bankning barcha aksiyalari egasining nomi yozilgan aksiyalar ko'rinishida va depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar shaklida hujjatsiz shaklda chiqariladi.

Bank aksiyalarining nominal qiymati 115,0 (Bir yuz o'n besh) so'mni tashkil qiladi.

Bank aksiyalarini mustaqil ravishda birja va birjadan tashqari savdo amaliyotlarida yoki investisiya vositachilari orqali joylashtirishi mumkin.

Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi.

6.2. Bankning aksiyadorlari quyidagi huquqlarga ega:

aksiyadorlar reestriga kiritilish;

depozitariydagi depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Bank tugatilgan taqdirda, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;

Bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z

huquqlarini himoya qilish;

o'ziga etkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish.

6.3. Bank aksiyadorlari qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.4. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, bank tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Bank mol-mulkingning bir qismini olish huquqiga egadir.

6.5. Bankning imtiyozli aksiyalari ularning egalari bo'lgan aksiyadorlarga bir xil hajmda huquqlar beradi.

Imtiyozli aksiya egalari bank foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'i nazar, aksiyalar nominal qiymatining 25 (yigirma besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorda imtiyozli asosda dividendlar olish huquqiga, shuningdek ular bankni tugatish paytida mablag'larni birinchi navbatda olish huquqiga ega.

6.6. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida bankni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Bunda, imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'ladilar. Imtiyozli aksiya egalari hisoblangan aksiyadorlar imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar miqdorini oshirish yoki kamaytirish masalalarida ham qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ovoz berish huquqiga ega bo'ladilar.

Bank tugatilgan taqdirda har bir turdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha tugatish qiymati aksiyalar nominal qiymatining 100 (yuz) foizidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

6.7. Bankning tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi va ovozlarni sanashda hisobga olinmaydi. Bunday aksiyalar ular Bank tasarrufiga o'tgan paytdan boshlab bir yildan kechikmay sotilishi kerak, aks holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi belgilangan tartibda ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

6.8. Bank aksiyalarini ochiq yoki yopiq obuna vositasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtirishi mumkin.

6.9. Aksiyalarga va ular yuzasidan tuzilgan bitimga haq to'lash qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston respublikasi tashqarisida chiqarishi mumkin.

6.11. Aksiyadorlar bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarining o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar bank majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi. Bank o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

7-BOB. BANK FOYDASINI TAQSIMLASH

7.1. Bankning sof foydasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi.

7.2. Bankning sof foydasi bankning tasarrufida qoladi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga binoan

bankning zaxira fondi va boshqa fondlarini shakllantirishga yo'naltiriladi, aksiyadorlar o'rtasida dividendlar shaklida taqsimlanadi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

8-BOB. BANKNI BOSHQARISH

8.1. Quyidagilar bankni boshqarish organlari hisoblanadi:

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
bank Kengashi;

- bank Boshqaruvi.

8.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bankning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Umumiy yig'ilish yillik va navbatdan tashqari tartibda o'tkazilishi mumkin. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi.

Yillik umumiy yig'ilishlar har moliya yili tugagandan keyin olti oydan kech bo'lmagan muddatda o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida majburiy tartibda bankning yillik hisobotlari, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti, foyda va zararlarni taqsimlash hamda bank Kengashi kiritgan boshqa masalalar ko'rib chiqiladi. Yillik umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi va tartibi, uning o'tkazilishi to'g'risida aksiyadorlarni xabardor qilish tartibi, uni o'tkazishga tayyorlanishda aksiyadorlarga beriladigan materiallar ro'yxati bank Kengashi tomonidan belgilanadi.

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bank Kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, bank Taftish komissiyasining (taftishchining), shuningdek talab taqdim etilgan sanada bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalarni ko'rib chiqishga haqli emas.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxati bank aksiyadorlari reestrining bank Kengashi belgilaydigan sanaga doir ma'lumotlari asosida tuziladi.

8.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 7 kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 kun oldin bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

8.4. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga quyidagilar kiradi:

- Bank ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi bank ustavini tasdiqlash;

- Bankni qayta tashkil etish yoki tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasi) tayinlash;

- bank Kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va ularning a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- Bank Boshqaruvi raisini tasdiqlash va u bilan mehnat shartnomasini tuzish, muddatini uzaytirish yoki to'xtatish, Kengashning Boshqaruv a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qarorlarini tasdiqlash;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

- Bankning ustav fondini kamaytirish;

- o'z aksiyalarini olish;

- Bankning oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- Bankning Taftish komissiyasi a'zolari (taftishchisi)ni saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari

tugatish;

- auditorlik tekshiruvi o'tkazish, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

- Bankning yillik hisobotlarini tasdiqlash, uning foyda va zararlarini taqsimlash;

- Bank harajatlarini tasdiqlash va ularni Bankni rivojlantirish biznes-rejasi bilan solishtirish, bank Kengashi a'zolariga beriladigan mukofotlar va ularning bank Kengashi a'zosi funksiyalarini bajarishlari bilan bog'liq xarajatlarini kompensasiya qilish miqdorini belgilash;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, bank Kengashi, bank Boshqaruvi va Taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

- qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanada Bank sof aktivlari miqdorining 50 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladigan mol-mulknini sotib olish yoki begonalashtirish bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanada Bank sof aktivlari miqdorining 15 foizidan 50 foizigachasini tashkil qiladigan mol-mulknini sotib olish yoki begonalashtirish bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzish to'g'risida qaror qabul qilish, agar bunday bitimni amalga oshirish masalasi yuzasidan bank Kengashida yakdillikka erishilmagan bo'lsa;

- qonun hujjatlariga muvofiq sodir etilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

8.5. Umumiy yig'ilishning vakolatiga kiritilgan masalalar bank Kengashiga hal etishi uchun berilishi mumkin emas, ushbu ustavning 5.5-bandiga muvofiq, aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ustav kapitalini ko'paytirish va shu bilan bog'liq o'zgartishlarni bank ustaviga kiritish to'g'risidagi masalani hal etish bundan mustasno.

8.6. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, bankning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

8.7. Umumiy yig'ilishga bank Kengashining raisi raislik qiladi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, uning o'rinbosari yoki Kengash a'zolaridan biri raislik qiladi.

8.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risida Nizomga muvofiq o'tkaziladi.

8.9. Bank Kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, Umumiy yig'ilishning vakolatiga tegishli bo'lgan masalalarni hal etish, bundan mustasno.

8.10. Bank Kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

Bank depozit, kredit, investision va dividend siyosati prinsiplarini tasdiqlash;

aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar, bundan mustasno;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun bank aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

Bank ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish (yoki yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash) to'g'risida takliflarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

Boshqaruv raisining taqdimnomasi bo'yicha bank Boshqaruvi a'zolarini tayinlash;

Bank nomidan Boshqaruv raisini yollash to'g'risidagi mehnat shartnomasini tuzish;

Bank ustav kapitalini aksiyalarning nominal qiymatini oshirish yoki qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish shuningdek, ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalarni bank ustaviga kiritish (qo'shimcha aksiyalar e'lon qilingan bank ustavida belgilangan aksiyalarning soni doirasidagina bank tomonidan joylashtiriladi);

Bank tomonidan korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda bank tomonidan joylashtirilgan qimmatli qog'ozlarni olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Boshqaruv raisiga to'lanadigan mukofot va kompensasiyalar miqdorini belgilash;

Bankning Taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan mukofotlar va kompensasiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

Bankning zahira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish;

Bankning ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash;

Bank Boshqaruvi faoliyat tartibini belgilovchi hujjatlarni tasdiqlash;

Bankning kelgusi yil uchun yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechikmasdan tasdiqlash;

Bankning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

yillik moliyaviy hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritish;

aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash shakli va tartibi bo'yicha tavsiyalarni taqdim etish;

Bankning begonalashtiriladigan mol-mulki qiymatini belgilashni tashkil etish (shu jumladan, mol-mulk garovga qo'yilganda);

Bankning aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish;

har chorakda bank Boshqaruvi raisining bank faoliyati natijalari to'g'risidagi hisoboti hamda bank ichki auditi xizmati rahbarining hisobotlarini eshitish;

o'z vakolati doirasida mulkni sotib olish va begonalashtirish bilan bog'liq yirik bitimlar (umumiy qiymati qarorlar qabul qilingan sanada bank sof aktivlari miqdorining 15 foizidan 50 foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida bitimlar yoki o'zaro bog'liq bir necha bitimlar) tuzish haqida qaror qabul qilish;

mazkur Ustavda va qonunchilikda bank Kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

8.11. Bank Kengashi vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar hal etish uchun bank Boshqaruviga berilishi mumkin emas.

8.12. Quyidagilar bank Kengashining vazifalari hisoblanadi:

o'z vakolatlarini bank aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

Bankka o'z vakolatlariga mos ravishda rahbarlik qilishni ta'minlash;

Bank faoliyati, kreditlar berish va mablag'larni investisiyalashning to'g'riligi ustidan joriy nazoratni amalga oshirish (omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida);

Bankning etarli darajadagi kapitallashuvini ta'minlash;

Bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

Bankni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan biznes-rejalar ijrosini nazorat qilish;

Bankning foyda ko'rishi monitoringini olib borish;

ichki audit xizmati faoliyat ko'rsatishini tashkil etish;

korporativ boshqarish bo'yicha qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga rioya qilinishi to'g'risidagi hisobotni yillik Umumiy yig'ilishga taqdim etish.

8.13. Bank Kengashi a'zolari soni 11 (o'n bir) kishidan iborat.

8.14. Bank Kengashi raisi bank Kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan bank Kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

8.15. Bank Boshqaruvi a'zolari va Boshqaruv raisi bank Kengashiga saylanishi mumkin emas. Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar bank Kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

8.16. Bank Kengashi a'zolari bir yil muddatga saylanadi va cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin. Bank Kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlarni soni bank Kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar bank Kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

8.17. Umumiy yig'ilishga bank Kengashining raisi raislik qiladi, u bo'lmaganda esa uning o'rinbosari yoki Kengash a'zolaridan biri raislik qiladi.

8.18. Bank Kengashi majlisi bank Kengashi raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra yoki: bank Kengashining ikki yoki undan ortiq a'zolari; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki; taftish komissiyasi; bank Boshqaruvi; bank ichki audit xizmati rahbari; bankning tashqi auditori talabi bo'yicha chaqiriladi.

8.19. Bank Kengashi majlislarini o'tkazish, ovoz berish va qarorlar qabul qilish tartibi umumiy yig'ilishda tasdiqlanadigan Bank Kengashi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

8.20. Bank Kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank Kengashi majlisida masalalarni hal qilishda bank Kengashining har bir a'zosi bir ovozga ega bo'ladi. Bank Kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum bank Kengashi a'zolarining 75 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

8.21. Ovoz berish huquqi bank Kengashining bir a'zosi tomonidan bank Kengashining boshqa a'zosiga berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

8.22. Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijro etuvchi organ - rais rahbarligida ishlaydigan Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.

8.23. Boshqaruv raisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tayinlanadi hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanadi.

Boshqaruv raisi quyidagi huquqlarga ega:

- bank boshqaruvi majlislarini o'tkazishni tashkil etish;
- bank nomidan barcha hujjatlarni hamda Bank boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolash;
- bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan bank nomidan bitimlar tuzish;
- bank manfaatlarini ifodalash;
- bank filiali yoki vakolatxona rahbarini tayinlash, shtatlarni tasdiqlash;
- bankning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish.

Bank Boshqaruvi 7 nafar a'zodan iborat bo'lib, ular Markaziy bank bilan kelishilgan holda Boshqaruv raisi taqdimnomasi asosida bank Kengashi qarori bilan tayinlanadi.

Kengashning Boshqaruv a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qarori umumiy yig'ilish tasdig'iga kiritiladi.

Bank Boshqaruvining vazifalari, huquq va majburiyatlari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan bank Boshqaruvi to'g'risida Nizomda belgilab qo'yiladi.

8.24. Bank Boshqaruvi:

Bankning joriy faoliyatiga tezkor rahbarlikni tashkil etadi va amalga oshiradi;

Bank markaziy apparati bo'linmalari rahbarlari va filiallari rahbarlarining bank faoliyatining aniq yo'nalishlari bo'yicha tegishli davrlar va ishlar uchun faoliyat yakunlari to'g'risidagi, shuningdek ular faoliyatini taftish qilish va tekshirish natijalari bo'yicha hisobotlarini ko'rib chiqadi;

Bank bo'linmalari ish amaliyotiga eng ilg'or bank texnologiyalari, bank ishlarini kompleks avtomatlashtirish loyihalari joriy etilishini tashkil etadi, zamonaviy bank infratuzilmasi yaratilishini ta'minlaydi;

Bankning filiallari va boshqa alohida bo'linmalari tarmog'ini takomillashtirish bo'yicha ishlarni belgilangan tartibda tashkil etadi va amalga oshiradi;

Bank mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha foiz stavkalarini va vositachilik haqi miqdorini ishlab chiqadi;

zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida bank aktivlarining diversifikasiyalanishini amalga oshiradi;

Bank tomonidan Markaziy bank belgilagan iqtisodiy normativlarga, Markaziy bankda majburiy zahiralarni shakllantirish yuzasidan talablarga rioya qilinishini ta'minlaydi;

Bankning kapitali va likvidli resurslari etarli darajada bo'lishini, shubhali va bekor turgan aktivlarga qarshi ularni klassifikasiya qilish asosida zahiralarni yaratilishini ta'minlaydi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibga va xalqaro standartlarga muvofiq bank buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etadi;

Bankning markaziy apparati bo'linmalari rahbarlarini va filiallari boshqaruvchilarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tayinlaydi va egallab turgan lavozimidan bo'shatadi, kadrlar tarkibi tayyorlanishini va qayta tayyorlanishini ta'minlaydi, eng o'rnatqan xodimlarni rag'batlantirish, shuningdek zaruriyat bo'lganda, xodimlarga nisbatan intizomiy jazolar qo'llash va ulardan intizomiy jazolarni olib tashlash to'g'risida qaror qabul qiladi;

Bank Kengashining Boshqaruv vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi;

Bank Kengashi va muassislarning birinchi talabi bo'yicha moliyaviy hisobotni va bank faoliyati to'g'risidagi boshqa axborotlarni o'z vaqtida taqdim etadi;

Bank Kengashi oldida bank faoliyatining moliyaviy natijalari uchun belgilangan tartibda hisobot beradi;

Bank Kengashida ko'rib chiqish uchun bankni rivojlantirish strategiyasi, bank Kengashi vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritadi;

Bank bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qiladi;

Bankning joriy faoliyati masalalarini tartibga soladigan ichki hujjatlarni tasdiqlaydi, tasdiqlanishi umumiy yig'ilish va bank Kengashi vakolatiga tegishli bo'lgan ichki hujjatlar, bundan mustasno;

Bankning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini tasdiqlaydi;

Bankning xodimlar sonini (shtatini) belgilaydi;

ishchi organlarni (qo'mitalarni) tuzadi, ularning vakolatlarini belgilaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

filial, sho'ba korxonalar vakolatxonalar rahbarlarini tayinlash tartibi to'g'risida qaror qabul qiladi va ularni tayinlash yuzasidan Boshqaruv raisi vakolatlarini belgilaydi;

Bank Kengashi bilan kelishgan holda o'z vakolati doirasida mol-mulk sotib olish va uni begonalashtirish bilan bog'liq bo'lgan yirik bitimlar tuzish, shu jumladan korxonalariga kreditlar (umumiy qiymati qaror qabul qilingan sanada bank umumiy kapitalining 15 foizini va undan ko'prog'ini tashkil qiladigan bitimlar yoki o'zaro bog'liq bir nechta bitimlar va ular muddatini uzaytirish) berish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

har yili bankning kredit rejasini shakllantirishda moliyalashtirish mo'ljallanayotgan investisiya loyihalarining puxta tanlab olinishini, samaradorligi kompleks baholanishini va ekspertizadan o'tkazilishini ta'minlaydi;

amalga oshirilayotgan investisiya loyihalarining o'zini o'zi qoplashi, qo'yilgan mablag'larning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi ustidan tizimli monitoring olib boradi hamda natijalari to'g'risida har chorakda bank Kengashiga axborot beradi;

Bank faoliyatining boshqa masalalarini ko'rib chiqadi va hal etadi.

8.25. Bank Boshqaruvi va bankning tegishli bo'linmalari rahbarlari bank hisobotidagi axborotning ishonchliligi uchun javob beradi.

8.26. Boshqaruv bank Kengashiga hisobot beradi.

8.27. Bank Boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasini bank nomidan bank Kengashi raisi imzolaydi, Boshqaruv raisining o'rinbosarlari, Boshqaruv a'zolari va bank bosh buxgalteri bilan mehnat shartnomalarini bank Boshqaruvi raisi imzolaydi.

8.28. Bankning filiallari rahbarlari Markaziy bank bilan kelishgan holda bank Boshqaruvi raisi tomonidan tayinlanadi. Boshqaruv raisi bank nomidan bank filiallari rahbarlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi.

8.29. Bank xodimlari mazkur Ustavga va qonun hujjatlariga muvofiq bank Boshqaruvi raisi yoki bank filiali rahbarlari bilan mehnat shartnomasi tuzadilar.

8.30. Bank Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va bank Kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

8.31. Bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim. ular o'z ishlarining natijalari uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

8.32. Bank Boshqaruvi birinchi zaruriyat tug'ilishi bilan bank aksiyadorlariga:
Bankning yillik hisobotlarini;
Bankning moliya-xo'jalik faoliyatiga taalluqli boshqa ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

8.33. Bank Boshqaruvi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar ko'pchilik, ovozlarining kamida 2/3 qismi bilan qabul qilinadi. Bank Boshqaruvi majlisida masalalarni hal qilishda bank Boshqaruvining har bir a'zosi bir ovozga ega bo'ladi. Bank Boshqaruvi majlisini o'tkazish uchun kvorum bank Boshqaruvi a'zolari belgilangan sonining kamida 75 foizini tashkil qilish kerak.

9-BOB. BANKNING HISOBI VA HISOBOTI

9.1. Bank buxgalteriya hisobini yuritadi hamda davlat boshqaruvining tegishli organlariga moliyaviy hisobotni va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hisobotlarni taqdim etadi.

9.2. Bank axborotning majburiy oshkor etilishini qonun hujjatlarida belgilangan hajmda, muddatlarda va tartibda amalga oshiradi, shuningdek o'zi tomonidan emissiya qilinadigan qimmatli qog'ozlarga tegishli bo'lgan axborotni e'lon qiladi.

9.3. Bank faoliyati natijalari oylik, choraklik va yillik buxgalteriya balanslarida, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda, shuningdek Markaziy bankka u tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etiladigan yillik hisobotda aks ettiriladi.

9.4. Bank qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya balansini, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni, hisobotlarning umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlangan boshqa shakllarini e'lon qiladi.

Bankning yillik hisobotidagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi Taftish komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

9.5. Bankning moliyaviy yili 1 yanvardan boshlanadi va 31 dekabrda tugaydi.

9.6. Bank bank faoliyati davomida shakllanadigan hujjatlarning lozim darajada hisobga olinishi, saqlanishi va undan foydalanilishini ta'minlaydi.

Bank qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddat mobaynida hujjatlarning saqlanishini ta'minlaydi.

Bank hujjatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat tomonidan saqlash uchun beriladi.

10-BOB. BANKNING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

10.1. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish umumiy yig'ilish tomonidan 3 a'zodan iborat etib Taftish komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

10.2. Bank taftishchisi yoki taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida bank Kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu bankda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlashi mumkin emas. Ayni bir shaxs ayni bir bank taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

10.3. Taftish komissiyasi a'zolari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zlariga yuklangan majburiyatlar halol bajarilishi uchun javob beradilar.

10.4. Taftish komissiyasining ish tartibi va uning vakolatlari umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlanadigan bankning Taftish komissiyasi to'g'risida Nizom bilan belgilanadi.

10.5. Taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra bank Boshqaruvida mansabni egallab turgan shaxslar bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etadi.

10.6. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra bank taftish komissiyasi xulosa

tuzadi, bu xulosada:

-bankning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;

-buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

Taftish komissiyasi o'tkazilgan taftish to'g'risidagi xulosani umumiy yig'ilishga taqdim etadi.

10.7. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining (taftishchining), aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, bank Kengashining tashabbusiga ko'ra yoki ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra bank Kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

10.8. Bankning ichki audit xizmati bankning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonun hujjatlariga, bank ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operasialarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek bankni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali bankning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

10.9. Ichki audit xizmati bank Kengashiga hisobdordir. Bank ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizom bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

10.10. Moliyaviy (buxgalteriya) hisobotning ishonchliligini, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqligini tekshirish va tasdiqlash uchun bank shartnoma asosida qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun lisenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotini jalb qiladi.

Auditorlik tashkiloti qonun hujjatlariga, ushbu Ustavga va bankning ichki hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkilotlarini tanlash bo'yicha tanlov yakunlariga ko'ra umumiy yig'ilishga bank Kengashi tomonidan tavsiya qilinadi.

11-BOB. BANKNI QAYTA TASHKIL ETISH VA UNING FAOLIYATINI TUGATISH

11.1. Bankni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.

Bankni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish) va tugatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

Qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 kundan kechiktirmay bank o'z kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor etadi. Kreditor bankdan majburiyatlarni tugatishni yoki muddatidan ilgari bajarishni hamda zararlarning o'rnini qoplashni quyidagi muddatlarda yozma ravishda xabardor etish orqali talab qilishga haqli:

qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish bank tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran 30 kundan kechiktirmay;

bo'lish yoki ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish haqidagi yozma bildirish bank tomonidan kreditorga yuborilgan sanadan e'tiboran 60 kundan kechiktirmay.

Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilayotgan bankning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan bankning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari yuzasidan solidar javobgar bo'ladi.

11.2. Bankni tugatish ixtiyoriy ravishda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida yoki sudning qarori bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bank qayta tashkil etilganda huquq va majburiyatlari uning huquqiy vorisiga o'tadi.

11.3. Bank qayta tashkil etilgan taqdirda ustavga va kredit uyushmalarini davlat ro'yxatiga olish kitobiga tegishli o'zgarishlar kiritiladi. Saqlash muddati tugamagan hujjatlar esa tegishli tartibda uning huquqiy vorisiga topshiriladi.

11.4. Bankning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda Bank faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

11.5. Bankni tugatishda aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bu haqda o'z kreditorlarini qonunchilikda belgilangan tartibda yozma ravishda xabardor qilishi shart.

11.6. Bank aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki bankni tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilgan tegishli organ bilan birgalikda Markaziy bank bilan kelishilgan holda tugatish komissiyasi tayinlaydi va tugatish tartibi va muddatini belgilaydi.

Tugatish komissiyasi tayinlangan vaqtdan boshlab unga bank ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar o'tadi.

11.7. Tugatish komissiyasi:

- Bankning tugatilishi haqida, shuningdek uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddatlari to'g'risida qonun hujjatlaridan belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi (ushbu muddat 2 oydan kam bo'lmasligi lozim);

- kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarini olish chora-tadbirlarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni bankning tugatilishi to'g'risida yozma shaklda xabardor qiladi.

Kreditorlarning talab qo'yishi uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansini tuzadi, mazkur balansda tugatilayotgan bank mol-mulkingining tarkibi, kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Oraliq tugatish balansi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Markaziy bank bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

11.8. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugaganidan keyin tugatish komissiyasi tugatish balansini tuzadi, tugatish balansi bank aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Markaziy bank bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Tugatilayotgan bankning kreditorlar bilan hisob-kitoblardan keyin qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan aksiyadorlar o'rtasida belgilangan tartibda taqsimlanadi.

11.9. Bank tugatilganidan so'ng uning arxivi, shu jumladan tugatish komissiyasining operatsiyalari bo'yicha hujjatlar, tugatuvchi tomonidan bank joylashgan joydagi davlat arxiviga belgilangan tartibda topshiriladi.

Boshqaruv raisi

B.M.Mullaxanov

ATB “Qishloq qurilish bank” da mavjud bo’lgan filiallar ro’yxati

№	Filiallar nomlari	Manzili
1	Qoraqalpog’iston Respublikasi mintaqaviy filiali	239000, Nukus shahri, Qizketgen qo’rg’oni, 6 -proezd, 12-uy
2	Beruniy filiali	230200, Beruniy shahri, Xalqlar do’stligi ko’chasi, 10-uy
3	Qo’ng’irot filiali	230600, Qo’ng’irot shahri, Boboniyozov ko’chasi
4	Chimboy filiali	231500, Chimboy shahri, Emazar Alako’z ko’chasi, 36-uy
5	Andijon mintaqaviy filiali	170100, Andijon shahri, Abdurauf Fitrat ko’chasi, 239-uy
6	Qo’rg’ontepa filiali	170700, Qo’rg’ontepa shahri, Muqimiy ko’chasi, 100-uy
7	Xo’jaobod filiali	170700, Xo’jaobod shahri, Navoiy ko’chasi, 17.
8	Buxoro mintaqaviy filiali	200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi, 3\1-uy
9	Galaosiy filiali	200400, Galaosiy shahri, Buxoro shox ko’chasi, 54-uy
10	Kogon filiali	200700, Kogon shahri, Do’stlik ko’chasi, 4-uy
11	Jizzax mintaqaviy filiali	130100, Jizzax shahri, Ko’tarma mahallasi, To’qimachilar ko’chasi, 2-A-uy
12	Yangiobod filiali	131300, Yangiobod tumani, Balandchaqir qo’rg’oni
13	Qashqadaryo mintaqaviy filiali	180100, Qarshi shahri, O’zbekiston ko’chasi, 44-uy
14	Ko’kdala filiali	181214, Chiroqchi tumani, Ko’kdala qo’rg’oni
15	Yakkabog’ filiali	181400, Yakkabog’ shahri, Furqat ko’chasi, 2-uy
16	Navoiy mintaqaviy filiali	210100, Navoiy shahri, G’alaba shox ko’chasi, 149-A-uy
17	Namangan mintaqaviy filiali	165115, Namangan shahri, Navoiy ko’chasi, 70 a-uy
18	Pop filiali	160504, Pop shahri, Do’stlik ko’chasi, 45-uy
19	Uchqo’rg’on filiali	160900, Uchqo’rg’on shahri, Do’stlik ko’chasi, 3 - boshi berk ko’cha, 1- uy
20	Samarqand mintaqaviy filiali	140161, Samarqand shahri, Sattapo maskani, 148-A-uy
21	Kattaqo’rg’on filiali	140800, Kattaqo’rg’on shahri, Amir Temur ko’chasi, 6-uy
22	Surxondaryo mintaqaviy filiali	190112, Termiz shahri, At-Termiziy ko’chasi, 11-uy
23	Qumqo’rg’on filiali	190901, Qumqo’rg’on tumani, Oqsoy mahallasi, 5-uy
24	Sho’rchi filiali	191500, Sho’rchi shahri, Mustaqillik ko’chasi, 77-uy
25	Jarqo’rg’on filiali	133300, Jarqo’rg’on shahri, A. Navoiy ko’chasi, 1-uy
26	Sariosiy filiali	133606, Sariosiy shahri, Mirzo Ulug’bek ko’chasi,18-uy
27	Sirdaryo mintaqaviy filiali	120100, Guliston shahri, N.Maxmudov ko’chasi, 31-uy
28	Yangier filiali	108706, Yangier shahri, Sh.Rashidov ko’chasi, 17-uy
29	Farg’ona mintaqaviy filiali	150100, Farg’ona shahri, Quruvchilar ko’chasi,13-uy

30	Qo'qon filiali	150700, Qo'qon shahri, Amir Temur ko'chasi, 39-uy
31	Quva filiali	150800, Quva shahri, Qayqubbod ko'chasi, 242-A - uy
32	Marg'ilon filiali	151100, Marg'ilon shahri, Marg'iloniy ko'chasi, 173-uy
33	Xorazm mintaqaviy filiali	220100, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko'chasi, 25-uy
34	Xonqa filiali	220800, Xonqa tumani, U.Yusupov ko'chasi, 30-uy
35	Xiva filiali	220900, Xiva shahri, Feruz ko'chasi, 87-uy
36	Toshkent viloyati mintaqaviy filiali	100047, Toshkent shahri, Olmazor mavzesi Furqat ko'chasi 6/7 uy
37	Oxangaron filiali	110300, Oxangaron shahri, Xolmuxammedov ko'chasi, 38/1 uy
38	Bekobod filiali	110502, Bekobod shahri, Birlik ko'chasi, 2-uy
39	Yangiyo'l filiali	112000, Yangiyo'l shahri, Oxunboboev ko'chasi, 28-uy
40	G'azalkent filiali	110700, G'azalkent shahri, Beruniy ko'chasi, 24-uy
41	Toshkent shahri mintaqaviy filiali	100060, Toshkent shahri, SHahrisabz ko'chasi, 38-uy
42	Bosh amaliyotlar boshqarmasi	100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 18A -uy